

O'ZBEKISTONDA YARATILGAN TUT IPAK QURTI DURAGAYLARI VA SELEKSION TIZIMLARINING MAHSULDORLIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1054>

Oserbayeva Sarbinaz Rustemovna

assistent, qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD) Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Sipatdinova Altinay Paxratdin qizi

magistrant, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda yaratilgan tut ipak qurti duragaylari va seleksion tizimlarning biologik hamda xo'jalik foydali ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Mahalliy duragaylarning pilla hosildorligi, ipakchanlik darajasi, hayotchanligi va tashqi muhitga moslashuvchanligi baholandi.

Kalit so'zlar: ipak qurti, duragay, seleksiya, pilla hosildorligi, ipakchanlik, geterozis, liniya.

KIRISH

Bugungi kunda ipakchilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sohada yuqori mahsuldor va kasalliklarga chidamli tut ipak qurti zotlari hamda duragaylarini yaratish dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekistonda ipakchilik ilmiy-tadqiqot yo'nalishida bir qator seleksion tizimlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular mahalliy iqlim sharoitiga moslashganligi bilan ajralib turadi. Yangi duragaylarni yaratishda pilla vazni, ipak chiqishi, lichinkalarning yashovchanligi va biologik barqarorligi asosiy mezon sifatida olinadi.

So'nggi yillarda mahalliy olimlar tomonidan yuqori ipak mahsuldorligiga ega bo'lgan yangi liniya va duragaylar yaratildi. Tut ipak qurtini yuqori texnologik xususiyatlariga ega yangi zot va duragaylarini yaratishda seleksioner olimlar uchun boshlang'ich seleksiya materialni tanlab olish katta ahamiyatga ega bo'lib seleksiya jarayonining imkoniyatlarini oshiradi.

Olimlarimizdan [1] lar yangi "Liniya-27" va "Liniya-28" tizimlarining hayotchanlik va mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish bo'yicha bir necha yillar davomida ish olib borganlar. Bir necha yillik seleksiya ishlari natijasiga ko'ra, Liniya-27 tuxumlar jonlanishi 95,6 %, Liniya-28 da 95,5 % ni tashkil etgan. Qurtlar hayotchanligi bo'lsa, Liniya-27 da 89,1 %, Liniya-28 da 90,1 % ga etgan. Bu seleksion tizimlarning aniqlangan etakchi xo'jalik qiymati belgilarining ko'rsatkichlari, kelajakda ushbu tizimlar asosida sermahsul, texnologik xususiyatlari talab darajasida bo'lgan yangi tut ipak qurti zotlari yaratilishiga asos bo'lishi mumkinligini olimlarimiz ta'kidlab o'tganlar.

Ipakchilik sohasining oldidagi muhim vazifalardan yana biri fermer xo'jaliklarida ipak qurti urug'ini to'g'ri, o'z vaqtida inkubatsiya qilish, jonlangan qurtlarni tezda ko'tarib olish, tarqatish, hamda bir tekis rivojlantirishdan iborat.

Olimlarimiz [2] lar ipak qurtining Ipakchi-1 x Ipakchi-2 duragayi ustida ipak qurtlarining bir tekis o'sishi va rivojlanishida tuxumdan jonlangan qurtlarni ko'tarib olish oziqlantirish va siyraklashtirish ahamiyati bo'yicha tajriba olib borganlar. Variantlar bo'yicha qurtlar bir tekis rivojlanganda oziqlanish kuni 19 sutka, qurtlar yashovchanligi esa 93 % ni tashkil etgan bo'lsa, qurtlar notekis rivojlanganida oziqlanish kuni 24 sutkaga uzayib yashovchanligi 82 % bo'lgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zgaruvchan iqlim sharoitida ipak qurtlarini parvarishlash har yili har xil natija beradi. [3] o'zining Qoraqalpog'iston Respublikasida olib borgan ilmiy ishlari natijalariga ko'ra Navro'z-1 Navro'z-2 duragaylarini parvarishlab, ular 58,0-62,0 kg pilla hosili olishga erishgan.

Tadqiqot maqsadi

Mahalliy seleksion tizimlar va duragaylarning mahsuldorlik imkoniyatlarini baholash hamda ularning sanoat ipakchiligi uchun ahamiyatini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot davomida qurtlarning: hayotchanligi, pilla hosildorligi, bitta pillaning o'rtacha vazni, ipakchanlik darajasi, ipak tolasi sifati ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

O'zbekistonda tut ipak qurti seleksiyasi bo'yicha ko'plab zotlar, liniyalar va sanoat duragaylari yaratilgan. Ularning asosiy maqsadi — yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli, ipak sifati yaxshi hamda mahalliy iqlimga mos duragaylarni olish hisoblanadi.

Quyida O'zbekistonda yaratilgan va amaliyotda foydalanilgan ayrim seleksion tizim hamda duragaylar keltiriladi:

Mahalliy seleksion tizim va liniyalar Liniya-27, Liniya-28, Liniya-50, Liniya-56, Liniya-66, Liniya-102, Liniya-103, Liniya-205. Bu liniyalar asosan: ipakchanlik foizini oshirish, pilla og'irligini kattalashtirish, yuqori hayotchanlikka erishish, issiq iqlimga moslashish uchun yaratilgan.

O'zbekistonda yaratilgan ayrim sanoat duragaylari

Ipakchi-1 mahalliy sharoitga yaxshi moslashgan, yuqori pilla hosildorligiga ega, tirik qolish foizi yuqori.

Ipakchi-2 ipak tolasi sifati yaxshi, pillasi yirik, sanoat qayta ishlashiga qulay.

Musaffo oqartirish va qayta ishlash uchun qulay oq pilla beradi, tola uzunligi nisbatan yuqori.

Navro'z tez rivojlanadi, bahorgi boqishga mos, iqlim o'zgarishiga chidamli.

Oltin vodiy pilla vazni yuqori, ipak chiqishi yaxshi, intensiv boqish texnologiyasiga mos, qisqa lichinkalik davr, yuqori ipak tolasi uzunligi, yuqori metrik nomerga ega.

Tadqiqotlar muhokamasi

O'rganishlarimiz davomida Liniya-66, Liniya-102 va Oltin vodiy duragaylari yuqori mahsuldorlik ko'rsatkichlarini namoyon etishi aniqlandi. Ayniqsa, ushbu tizimlarda ipakchanlik darajasi 25–27 % gacha yetgani aniqlandi. Ipakchi-1 va Ipakchi-2 duragaylari esa mahalliy iqlimga moslashganligi hamda yuqori hayotchanligi bilan ajralib turdi.

Duragaylarda geterozis hodisasi natijasida pilla vazni va ipak sifati yaxshilangani kuzatiladi. Ayrim duragaylarda lichinkalik davrining qisqarishi ozuqa sarfini kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

XULOSA

O'zbekistonda yaratilgan tut ipak qurti duragaylari yuqori hosildorligi, sifatli ipak berishi hamda mahalliy sharoitga moslashganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ularni ishlab chiqarishga keng joriy etish ipakchilik tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasirillaev B.U, Umarov Sh.R, Jumaniyazov M.Sh, Giyasova K.S. Ipak qurtining yangi "Liniya-27" va "Liniya-28" tizimlarining hayotchanligi va mahsuldorlik xususiyatlari. //Zooveterinariya. -Toshkent, 2016. -№4. 40-41-b.
2. Axmedov N, Fayzullaeva G, Axmedova H. Ipak qurtlarining bir tekis o'sishi va rivojlanishida tuxumdan jonlangan qurtlarni ko'tarib olish, oziqlantirish va siyraklashtirish ahamiyati. //Zooveterinariya. –Toshkent, 2013. №5. 31-32-b.
3. Abdrimova G.E. Breeds and haybrids of silkworm, prospective for intoruction in silk breeding of Karakalpakstan. // International journal of innovations in engineering research and technology. 10-November, 2020. 7(11) P. 51-53.



GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR, CHOʻLLANISH VA OZIQ- OVQAT XAVFSIZLIGI

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2026-yil 2-iyun, Qoraqalpogʻiston
qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti, Nukus*

